

IDEOLOGIYA VA SAN'AT: 1920-1930 YILLARDA O'ZBEKISTONDA SOTSIALISTIK MODERNIZATSIYANING REPREZENTATSIYASI



Malika To'xtayeva

“Fanlararo tadqiqotlar” bo'limi boshlig'i, PhD
O'zbekiston Fanlar akademiyasi
Milliy arxeologiya markazi

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-04-13>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sovet tasviriy san'atida paxta ikonografiyasi targ'ibot vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada mehnat, modernizatsiya va jamoaviy o'zlik haqidagi tasavvurlarni shakllantirgan sotsrealizmning asosiy asarlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston san'ati, O'zbekiston rassomlari, mafkura, modernizatsiya, sanoatlashtirish, paxta.

Аннотация: В данной статье рассматривается иконография хлопка в советском изобразительном искусстве Узбекистана как элемент визуальной пропаганды. Анализируются ключевые произведения соцреализма, формировавшие представления о труде, модернизации и коллективной идентичности.

Ключевые слова: искусство Узбекистана, художники Узбекистана, идеология, модернизация, индустриализация, хлопок.

Abstract: This article examines the iconography of cotton in Soviet fine art in Uzbekistan as an element of visual propaganda. The author analyzes key works of socialist realism that shape ideas about labor, modernization, and collective identity.

Keywords: Art of Uzbekistan, artists of Uzbekistan, ideology, modernization, industrialization, cotton.

1980–1990-yillarda G'arb tarixshunosligida sovet davri (1920–1950-yillar) siyosiy va madaniy jarayonlarini vizual manbalar orqali o'rganish alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Margarita Tupitsina, Metyu Boun, Hans Gyunter va Viktoriya Bonnellning tadqiqotlari sovet tasviriy san'ati davlat mafkurasini shakllantirishda muhim vosita bo'lganini ko'rsatdi. Jumladan, Bonnell o'zining “Hokimiyat ikonografiyasi” nomli kitobida siyosiy plakatlarini sotsialistik safarbarlik vositasi sifatida tahlil qilgan. Biroq Markaziy Osiyo, ayniqsa O'zbekistonning o'ziga xos vizual madaniyati hanuz yetarlicha o'rganilmagan. Bu ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning markaziy timsollaridan biri paxta bo'ldi — mintqa iqtisodiyotida muhim o'rin tutgan strategik ekin. Paxta iqtisodiy ahamiyatidan tashqari, mehnat va farovonlik timsoli sifatida mafkuraviy ramzga aylantirildi. Tasviriy san'atda u sovet iqtisodiyotidagi o'rniga urg'u beruvchi targ'ibot vositasi sifatida xizmat qildi. Rassomlar bayramlar uchun bezaklar tayyorladilar, paxtakor ayollar, paxta dalalarida mehnat qilayotgan ishchilar, paxta zavodlari va fabrikalari, shuningdek, paxta farovonlik timsoli sifatida gavdalangan bayramlar va paradlar tasvirlangan ocherklar, litografiyalar, plakatlar va rasmlar yaratdilar. [1. F. 2487, ro'yxat 1, ish 32, b. 75].

1920-yillarda rassomlar voqealarni shunchaki qayd etish bilan kifoyalanmasdan, ularni ijodiy tasavvur orqali qayta yaratishga intildilar. Turli avangard yo'nalishlarda ijod qilgan san'atkorlar badiiy improvizatsiyani asosiy metod sifatida qo'llab, hodisalarning mohiyatiga yetib borishga harakat qildilar. Biroq 1930-yillardan boshlab rasmiy san'atning yetakchi uslubi sifatida “sotsialistik realizm” e'lon qilindi. Bu uslub mavjud tuzum va uning yutuqlarini ideallashtirishga asoslangan edi. Natijada, san'at ustidan mafkuraviy nazorat kuchaydi va partiyaning markaziy organlari rassomlarning ijodiy yo'nalishini belgilovchi asosiy tsenzorga aylandilar. Sotsrealizm

sanoatlashuv, kollektivlashtirish va mehnat entuziazmini ulug'lashga tayangan bo'lib, san'atni davlat targ'iboti va tashviqotining ajralmas qismiga aylantirdi. Partiyaviylik prinsiplari asosida shakllangan qat'iy dastur rassomlarning erkin ijodini cheklab, ularni davlat mafkurasiga xizmat qilishga majbur qildi. Shu tariqa, 1930-yillarda madaniyat va san'at to'liq mafkuraviy qurolga aylantirildi. Qattiq mafkuraviy bosim va sotsialistik realizmning rasman tasdiqlanishi san'at amaliyotini tubdan o'zgartirdi. Rassomlarning e'tibori qaratilishi lozim bo'lgan asosiy mavzular quyidagilar edi: "Qadiriylar GESi, Chirchiqstroy, Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi, paxta va suv uchun kurash, sovxozlar va kolxozlar", — deb yozadi o'sha davr haqida V. Chepelev [8, b. 35]. Shu munosabat bilan rassomlar ko'pincha korxona va kolxozlarga safar qilgan holda, o'z asarlarida mehnat yutuqlarini tasvirlashgan. Ularning ishlari sovet jamiyatida qanday qadriyatlar muhim va munosib sanalishini shakllantirgan. Partiya organlarining mavzuli ko'rsatmalari yoki "ijtimoiy buyurtma"lariga asoslanib, Rassomlar uyushmasining yillik ish rejalari tuzilgan. San'at ko'rgazmalari va tanlovlarining rejalari siyosiy va mafkuraviy voqealarga — masalan, yer islohoti, ayollarni ozod qilish, kollektivlashtirish, sanoatlashtirish, madaniy qurilish va ijtimoiy qishloq xo'jaligi kabi masalalarga — bo'ysundirildi [3. F. R-2320, ro'yxat 1, ish 26, b. 18; RGALI, F. 965, ro'yxat 3, ish 408, b. 60]. Shunday qilib, san'at yangi dunyoqarashni shakllantirish vositasiga aylandi. Bu dunyoqarashda tabiiy resurslar va mehnat taraqqiyotining asosiy omillari sifatida talqin qilinardi. O'zbekiston rassomlari mafkuraviy cheklolarga qaramasdan, milliy badiiy o'zligini saqlab qolishga intildilar va o'ziga xos shaklni izladilar. Ularning asarlarida an'anaviy tasviriylilik va zamonaviy san'at yo'nalishlarini uyg'unlashtirishga bo'lgan harakat yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu yorqin ranglar palitrasi, avangard usullar va san'atni davr talablari asosida moslashtirish orqali namoyon bo'ldi. Bunday yondashuvning yorqin namunalaridan biri — N. Karaxanning "O't tashlash" (1932), "Paxta terimi", "Paxtadagi ayollar zarbdor brigadasi" kabi asarlaridir. Bu kartinalarda mafkuraviy mazmun bilan birga kompozitsiyaning shartliligi va statikligi uyg'unlashgan. Rassom o'z asarlarida mintaqaning madaniy xususiyatlarini aks ettirishga intilgan, xalq turmush tarzining o'ziga xosligini tasvirlashga harakat qilgan.

Xususan, paxta terimi bilan shug'ullanayotgan ayollar obrazlarida u an'anaviy kiyimlarga — uzun ko'ylaklar va nimchalar, shuningdek, ensada bog'langan o'ziga xos bosh kiyimlarga alohida e'tibor qaratgan. Bu kabi detallar, Karaxon ijodida bo'lgani kabi, o'sha davrning boshqa rassomlari asarlarida ham etnografik aniqlikni saqlab qolgan holda, mintaqaning madaniy o'ziga xosligini ifodalagan.



Nikolay Karaxan "Paxta terimi".

N. Karaxanning "Paxtani chopiq qilish" kartinasi 1930-yillardagi sovet san'atining o'ziga xos namunalaridan biri bo'lib, o'sha davr mafkuraviy talqinlarini aks ettiradi. Rasmda paxta dalalarida ishlayotgan mehnatkashlar tasvirlangan. Rassom tomoshabinning e'tiborini yorqin va to'yingan ranglar palitrasi orqali jalb etishga harakat qilgan, mehnat jarayonini ko'tarinki va ijobiy

obrazda tasvirlashga intilgan [1]. Biroq mazmuni rasmiy mavzuga mos bo'lishiga qaramay, ushbu asar O'zbekiston Sovet rassomlari uyushmasi yig'ilishlarida tanqid ostiga olingan. Sababi, ishchilarning chehralari charchagan, holdan toygan holatda tasvirlangani edi — bu esa sovet mehnat entuziazmini ulug'lovchi rasmiy talablarga zid deb topilgan.



Nikolay Karaxan “Paxtani chopiq qilish”.

1932-yilda “Paxtani chopiq qilish” kartinasi I Respublika badiiy ko'rgazmasida namoyish etildi. Biroq san'atshunoslar ushbu asarni sovet mehnatkashlarining hayotini “buzib ko'rsatgani” uchun tanqid qildilar. Natijada, rassom N. Karaxon mafkuraviy savodxonlikni oshirish kurslariga yuborildi. Bu kurslarni tamomlaganidan so'ng, uning ijodi sotsialistik realizm tamoyillariga muvofiq deb baholanib, ijobiy baho ola boshladi.

Karaxon bilan bir qatorda, O'zbekiston matbuotida M. Kurzina, N. Kashina, A. Volkov va Ye. Korovayning asarlari ham keskin tanqid ostiga olingan. Bu rassomlarning sovet haqiqatini, dehqonlar hayoti va ishchilarning mashaqqatli mehnatini aks ettirgan ishlari “haqiqatni buzib ko'rsatganlik”da ayblangan, bu esa sotsrealizmning rasmiy estetik mezonlariga zid deb topilgan. Muallif ta'kidlashicha, A. Volkovning “Paxta” triptixida ranglarning “primitivlashtirilganligi, umumlashtirish va plakatga xos uslub” kuzatilgan bo'lsa, M. Kurzin bu primitizatsiyani “eng yuqori darajaga olib chiqqan” [4]. Volkov o'z asarlarida ko'pincha monumentallikka moyil, deyarli harakatsiz kompozitsiyalarni tanlagan; ularda ishchilar go'yoki toshdan yasalgan haykallarga o'xshab ko'rinadi. Uning 1930–1931-yillarda yaratilgan “Paxta” triptixi quyidagi mantiqiy ketma-ketlikni ifodalaydi: Bahorgi ishlari (ekish), Paxta dalalaridagi mehnat, Hosilni yig'ib olish. Bunday uch qismli tuzilma qishloq xo'jaligi mehnatining tsiklik xarakterini aks ettirib, uni sotsialistik qurilishda alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi.

“Paxta terimi” (1931) asarida rassom piramidal kompozitsiyani qo'llagan, unda paxta ko'tarib kelayotgan ayol markaziy obraz sifatida ajralib turadi. Bu obraz mehnatsevarlik va jamoaviylik timsoli sifatida talqin qilinadi.



Aleksandr Volkov “Paxta”.

1930-yillarda rasmiy san’atdan texnik qudrat, taraqqiyot va sotsialistik yutuqlarni namoyish etish talab etilar, shu bilan birga, an’anaviy turmush tarzining unsurlari eskilik va nomaqbul hodisa sifatida qabul qilinardi. Rassom Reyxning “Qo’ng’irot–Chorjo’yi qurilishi” nomli kartinasi bu talablar bilan mos kelmagani uchun ko’rgazmaga qabul qilinmadi — asar “naturallikda” ayblandi. Rasmiy tanqidchilar xulosasida shunday deyilgan:

«O’zi qurilish manzarasi uzoq ufqda joylashgan. Oldingi planda holdan toygan odamlar suv ichishmoqda. Suv — ko’zalar ichida, ularni tuyaga ortishgan. Bu arxaik, ammo hali ham mavjud vosita Reyx tomonidan oldingi planga chiqarilgan. Uning fikricha, bu xalq mehnatining pafosini aks ettirishi kerak emish. Holbuki, bu kabi qurilishlarni hali zamonaviy texnika bilan to’liq ta’minlay olmasligimizga qaramay, bu holatni san’atda asosiy element sifatida ko’rsatib bo’lmaydi. U ekzotika izidan ketgan. Natijada, qurilishga oid bilimiy qiymat pasaygan va ob’yektiv haqiqat buzilgan» [5. F. 3189, ro’yxat 1, ish 2664, b. 109].

Qo’ng’irot–Chorjo’yi qurilishi — Qoraqalpog’iston va Turkmaniston orqali o’tgan temir yo’l liniyasining barpo etilishi — Sovet Ittifoqining Markaziy Osiyoni o’zlashtirishga doir ulkan loyihalaridan biri edi. Rasmiy targ’ibotda bu kabi qurilishlar insonning tabiat ustidan g’alabasining timsoli sifatida taqdim etilardi. Shu sababli, og’ir jismoniy mehnat, charchoq yoki an’anaviy usullardan foydalanishga (masalan, suvni tuyada tashish) urg’u berish noo’rin va hatto zararli deb hisoblangan.

Reyx asariga nisbatan bildirilgan tanqidlar nafaqat san’at uslublari o’rtasidagi qarama-qarshilikni, balki ikki qarama-qarshi dunyoqarash — real voqelikni hujjatli aks ettirish va mafkuraviy tarzda ishlab chiqilgan “sovet taraqqiyoti”ning idealizatsiya qilingan tasvirini — to’qnashuvini ko’rsatadi.

Xulosa

Markaziy Osiyoda, jumladan O’zbekistonda iqtisodiy, mafkuraviy va ijtimoiy o’zgarishlarning tarixiy dinamikasi sovet davrida tasviriy san’atning shakllanishi va rivojlanishiga o’z ta’sirini ko’rsatdi. Sotsialistik mafkura ta’sirida san’at targ’ibot vositasiga aylanib, sovet davlatining asosiy yo’nalishlarini — industrializatsiya, kollektivlashtirish va taraqqiyotni — aks ettirishga xizmat qildi. Yetakchi badiiy yo’nalish sifatida sotsialistik realizm shakllandi. Bu uslub, bir tomondan, rassomlarga belgilangan mavzular doirasida o’zini ifoda etish imkonini bergan bo’lsa, boshqa tomondan — qat’iy mafkuraviy cheklovlar joriy qilgan. N. Karaxan, M. Kurzin, A. Volkov va Reyx kabi rassomlarning ijodi san’atdagi milliylik va siyosiy maqsadga muvofiqlik o’rtasidagi murakkab muvozanatni yaqqol namoyon etadi. Partiya organlarining bosimiga qaramay, bu rassomlar milliy o’ziga xoslikni saqlab qolishga intildilar — ular an’anaviy shakl va rang yechimlarini sotsialistik realizm talablariga moslashtirishga harakat qildilar. Biroq rasmiy estetik mezonlardan chekinish har qanday holatda keskin tanqid ostiga olinardi, bu esa

san'atkorlarning erkin ijodiy ifoda imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklardi. O'zbekistonning sovet davri san'ati mafkura, madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqaning yorqin namunasi hisoblanadi. Bu san'at nafaqat jamiyatdagi o'zgarish jarayonlarini hujjatlashtirdi, balki ularning mazmunini shakllantirib, vizual obrazlar orqali o'tmishga bo'lgan qarashlarga keyingi o'n yilliklarda ham ta'sir ko'rsatishda davom etdi. Bugungi kunda ushbu davrni o'rganish san'at va hokimiyat o'rtasidagi munosabat mexanizmlarini chuqurroq anglash, shuningdek, ideologik omillarning mintaqadagi badiiy an'analar rivojiga ta'sirini baholash imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Варшавский Л. Искусство советского Узбекистана №261, сентябрь 1934
2. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'z MA), F. 2487, ro'yxat 1, ish 32, bet 75.
3. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'z MA), F. P-2320, ro'yxat 1, ish 26, bet 18; Rossiya davlat san'at va adabiyot arxivi (RGALI), ф. 965, оп. 3, д. 408, bet 60.
4. Правда Востока. 1924. № 118 (2876).
5. Rossiya davlat san'at va adabiyot arxivi - Российский государственный архив литературы и искусства (RGALI), F. 3189, ro'yxat 1, ish. 2664, bet. 109.
6. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent, 2000. – 400 b.
7. Чегодаева М.А. Социалистический реализм - мифы и реальность / М.А. Чегодаева. 2003. – 214 с.
8. Чепелев В. Живопись советского Узбекистана // Искусство. – 1934. – № 6. – С. 35.